

## O‘ZBEK TILINING MULTIMEDIYA KORPUSINI YARATISH TAMOYILLARI

Saydaliyeva Matluba Shuxrat qizi

[saydaliyeva1993@mail.ru](mailto:saydaliyeva1993@mail.ru)

O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi akademik litseyining  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqola o‘zbek tili milliy korpusining tarkibida multimediyaga korpusini yaratish zaruratiga bag‘ishlangan. Tadqiqotchi multimediyaga korpusining boshqa an‘anaviy tayyor multimediyaga qo‘llanmalaridan afzalliklarini ko‘rsatib bergan va uni yaratish masalasi dolzarb degan xulosaga keladi.

**Kalit so‘zlar:** Korpus lingvistikasi, subkorpus, klip, klipmatn, klikst, imo-ishora komponenti.

**Abstract:** The article is devoted to the need to create a multimedia corpus within the national corpus of the Uzbek language. The researcher has shown the advantages of the multimedia corpus over other traditional ready-made multimedia guides and concludes that the question of its creation is urgent.

**Keywords:** corpus linguistics, subcorpus, clip, cliptext, clickst, gesture component.

Korpus tilshunosligini rivojlantirish bilan bir qatorda, korpuslar qurish ham zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Hozirgi vaqtda korpuslardan foydalanish ko‘pgina lingvistik tadqiqotlarda yetakchi rol o‘ynaydi.

Korpus lingvistikasi XX asrning 60-yillarida asosan ingliz tili materiallari asosida paydo bo‘ldi, biroq tez orada boshqa tillarning ham korpuslari vujudga kela boshladi. 1963-yilda AQShdagi Braun universitetida U. Frensis va G. Kuchera kabi

olimlar tomonidan birinchi matn korpusi yaratilgan bo‘lib<sup>1</sup>, bu korpus 500 ta matndan iborat edi. Mazkur matnlarning har birida ikki mingtadan so‘z bo‘lib, ular AQShdagi eng ommabop hisoblangan 15 turdagi nasriy janrda yozilgan inglizcha matnlar edi. Shuningdek, ushbu korpusga chastota ko‘rsatkichi hamda ayrim statistik ma’lumotlar ham ilova qilingan.

Ko‘pgina mamlakatlar Braun korpusidan o‘rnak olib, o‘zlarining milliy korpuslarini yaratishga qaror qilishdi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining juda ko‘pi o‘z milliy korpusiga ega. O‘zbek tilining ham milliy korpusini yaratishga oid tadqiqotlar kun sayin ko‘payib bormoqda.

Ayni paytda korpus tilshunoslari orasida og‘zaki nutqda hissiyotlarni yetkazish usullari – ajablanish, quvonch, qayg‘u kabilarni ifodlashni o‘rganishga katta qiziqish mavjud. Bunday tadqiqotlarda multimediya subkorpusi yordam beradi.

Yaratilgan barcha milliy korpuslarning tarkibida multimediya korpusi mavjud emas. Rus tili milliy korpusidan ushbu korpus ham o‘rin olgan. 2010-yilda rus tilining milliy korpusi tarkibida multimediya korpusi ommaga taqdim etilgan. Ushbu multimediya korpusi an’anaviy matn korpus xususiyatlari (morfologik, semantik, metamatn)dan tashqari, og‘zaki matnlarning nutq harakatlarini, takrorlanishlarni, interjektsiyalarni va vokal imo-ishoralarni belgilash, nutq uslubi va boshqalarni belgilashlarni ham o‘z ichiga oladi.

Multimediya korpusida ikki xil birlik namoyish etiladi<sup>2</sup>:

1. Multimediya fragmenti bilan mos keladigan ovoz va ularga giperhavola orqali bog‘langan matn bo‘lagi. Bu birlik shartli ravishda klipmatn yoki klikst deb nomlanadi.
2. Multimediya fragmentini ifodalovchi imo-ishora materiallari. Bu birlik biror filmdan video yoki istalgan shakldagi klip bo‘lishi mumkin, lekin matn emas.

Har bir klikst yoki klip alohida matn hisoblanadi va uning muallifi, nomi, yaratilgan sanasi, janri, xronotopi va boshqa ba’zi jihatlari bo‘yicha alohida matn

<sup>1</sup> Ш.М. Хамроева “Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати” Бухоро 2018

<sup>2</sup> Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика.— Иркутск: ИГЛУ, 2011. — 161 с.

sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birga, multimediya korpusini an'anaviy og'zaki subkorpus bilan taqqoslaganda uning o'ziga xosligini to'liq ochib beradigan boshqa qo'shimcha xususiyatlari namoyon bo'ladi.

O'zbek tilining ham multimediya korpusi yaratilsa u qanday ko'rinishda bo'ladi. Masalan, "baribir" degan so'z qidiruvga berilsa, ushbu so'z ishtirok etgan audio va videokliplar ekranda namoyon bo'ladi. Qidiruv natijasi videolavhani tomosha qilish hamda eshitish imkonini beradi:

Film nomi	Sana	Murojaatning kimga yoki nimaga qaratilganligi	Aktyor	Aktyorning jinsi	Tug'ilgan yili	Imo-ishora turi	Faol a'zo
"Mahallada duv-duv gap"	1960	kingadir	Hamza Umarov	Erkak	1925	Qo'l silkish	Qo'l

Biror tilning milliy korpusini yaratish uchun har qanday tilshunos yoki ular jamoasi quyidagi tamoyillardan foydalanadi:

1. Rejalashtirish.
2. Ma'lumotlarni yig'ish hamda saralash.
3. Matn hajmi va uni kodlashtirish.
4. Korpus yorlig'i (razmetkasi, belgisi, annotatsiyasi)
5. Korpusni saqlash va uni taqdim etish.

Multimediya korpusini uzoq vaqtdan beri o'qitishda, ayniqsa chet tillarini o'qitishda, qo'llanilgan mavjud elektron manbalar – audio kurslar, multimediya qo'llanmalari, o'quv filmlari bilan taqqoslaganda uning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda matnga moslashtirilgan, murakkab lingvistik va metalingvistik belgilar bilan ta'minlangan va qidiruv vositasi bilan jihozlangan audio va video materiallar mavjud va bu ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Buning yordamida korpus nafaqat o'quv kurslarida, balki tadqiqot maqsadlarida ham qo'llanilishi mumkin. Korpusdan ta'limda foydalanish ko'lami ham kengayib bormoqda – bu nafaqat amaliy, balki tilni nazariy o'rganishda – maktabda va universitetda fonetika, orfoepiya, stilistika va nutq madaniyati kurslarida ham foydali bo'ladi.

**ADABIYOTLAR**

1. Ш.М. Ҳамроева “Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли лугати” Бухоро 2018
2. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – T., 2007
3. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика.– Иркутск: ИГЛУ, 2011. –161 с.
4. Е.А. Гришина., Мультимедийный русский корпус: современное состояние и перспективы развития